



O'ZBEK TILI XALQIMIZ UCHUN MILLIY O'ZLIGIMIZ VA MUSTAQIL DAVLATCHILIK TIMSOLI

Toshtemirov Asliddin

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

amaliy psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7426169>

ARTICLE INFO

Received: 30th November 2022

Accepted: 10th December 2022

Online: 12nd December 2022

KEY WORDS

O'zbek tili, "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun, XI—XIV asr qo'lyozmalari, O'rxun-Enasoy yodgorliklari, Alisher Navoiy

ABSTRACT

O'zbek tili va uning davlat tili sifatidagi ahamiyati. 1989 yil 21 oktabrda " Davlat tili haqidagi " gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni , 1993 yil 2 – sentabrda " Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida " gi Qonuni qabul qilindi . " Davlat tili haqida " gi qonunning qabul qilinganligiga bu yil 29 – yil to'ldi . O'tgan shu davrda ona tilimizning yanada sayqallanishi , badiiyligi , tarixiyligi va dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy , ma'naviy – ma'rifiy , mafkuraviy ijo , izlanishlar , ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda . Pirovard natijada , bugungi kunda jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari – O'zbekiston Respublikasi bayrog'i , gerbi , davlat madhiyasi qatorida o'zbek tiliga ham hurmat bilan qarab , nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar . Har yili 21 – oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an'anaga aylanib qolgan . Chunki mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish , uning milliy ruhini oshirish , madaniyat va san'atni yuksak pag'onalariga ko'tarish , shuningdek , lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashdek , ustuvor yo'nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma'noda kundalik hayotimizda tobora singib bormoqda .

Asosiy qism. O'zbek adabiy tili tarixi quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: miloddan oldingi davrlardan to X asrlargacha bo'lgan davr. Bu davrdagi til fanda qadimgi turkiy til deb yuritiladi. Qadimgi xalq og'zaki ijodi namunalari,

O'rxun-Enasoy yodgorliklari (VI—VII asrlar) shu tilda yaratilgan.

XI—XIV asrlarda amalda bo'lgan til eski turkiy til deb ataladi. Mahmud Qoshg'ariyning „Devonu-lug'atit-turk“ („Turk tillari devoni“), Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ („Saodatga yo'llovchi



bilim“), Ahmad Yugnakiyning „Hibatul haqoyiq“ („Haqiqatlar armug‘oni“), Xorazmiyning „Muhabbatnoma“, Rabg‘uziyning „Qissai Rabg‘uziy“ asarlari shu tilda yaratilgan.

XV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha qo‘llangan til eski o‘zbek adabiy tili deb nomlangan. Atoyi, Sakkokiy, Sayfi Saroyi, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab, Turdi, Maxmur, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy va boshqa ko‘plab ijodkorlarning asarlari shu tilda yaratilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi davrgacha ishlatib kelayotgan til hozirgi o‘zbek adabiy tili deb ataladi. „Turkiston viloyati gazetasi“ nashr qilina boshlagan vaqtdan (1870-yildan) e‘tiboran to hozirgi kungacha yaratilgan barcha asarlar hozirgi o‘zbek adabiy tilining namunalari hisoblanadi.

O‘zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi va XIII asrda eski o‘zbek adabiy tili shakllanib bo‘ldi. Eski o‘zbek tilining rivoji buyuk Alisher Navoiyning nomi bilan bog‘liqdir. U eski o‘zbek tilining keng imkoniyatlaridan foydalangan holda ajoyib asarlar yaratibgina qolmasdan, bu tilni ilmiy jihatdan chuqur tadqiq qiluvchi „Muhokamat-ul-lug‘atayn“ nomli yirik ilmiy asar ham yozdi va unda o‘zbek tilining boshqa tillardan hech kam emasligini ishonarli misollar bilan isbotlab berdi. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma‘naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta‘sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli

qo‘shiqlariga quloq tutsin, - deydi Sh.Mirziyoyev.

O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so‘zlashadi. Mustabid tuzum davrida tilimizni yo‘qotishga ko‘p urinishlar bo‘lgan edi. Lekin xalqimiz o‘z ona tilini – milliy g‘ururini saqlab qoldi. Millatparvar ziyolilar, tilimiz fidoyilarining jonkuyarligi natijasida 1989-yil 21-oktabr kuni qabul qilingan qonunga asosan, o‘zbek tili mamlakatimizda davlat tili maqomiga ega bo‘ldi.

Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e‘tiborni mustaqillikka bo‘lgan e‘tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni, ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak, - deydi Shavkat Mirziyoyev. - Bu olijanob harakatni barchamiz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

O‘zbekistonda davlat tili haqidagi qonunning 31 yilligi nishonlanmoqda. 1989-yil 21-oktabrda o‘zbek tilida davlat tili maqomi berilgan. 31 yillik davr ichida o‘zbek tili davlat tili sifatida maqomini qanchalik mustahkamladi? Kuzatuvchilar fikricha, o‘tgan 31 yil o‘zbek tili uchun arosatdagi davr bo‘lgan. Tilshunoslar o‘zbek tilining davlat maqomiga chiqishi ham, buning ortidan davom etayotgan 31 yillik ikkilanish davri ham hokimiyatdagi siyosiy iroda bilan bog‘liqligini aytmoqda. 31 yil muqaddam davlat tili maqomiga ko‘tarilgan o‘zbek tiliga doir bugungi vaziyat hamon achinarli qolayotgani mahalliy matbuotda tilga ko‘rsatilayotgan ehtirom va mavjud



muammolar haqida yozilgan maqolalardan ham ko'rinadi. Ehtirom hukumatning davlat tili rivojiga doir qarorlar qabul qilayotganida ko'rilsa, muammolar aksariyat qonunlar, hujjatlar, ish yuritish, reklama va e'lonlar hamon rus tilida ekanligida. Qabul qilinganiga 31 yil to'lgan davlat tili haqidagi qonun tarixida bu muammolar yangi emas, 10 yillar avval ham aynan shu muammolar mavjudligi, bularga qaramasdan hukumat o'zbek tiliga ehtirom ko'rsatayotgani, davlat tilini rivojlantirishga doir qarorlar qabul qilayotgani haqida yozilar edi.

Davlat tiliga doir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish va o'tkazish bilan cheklangan bu qarorda o'zbek tilini chorak asrdiki asoratda qoldirib kelayotgan asosiy muammo - til yozuvi masalasi haqida hech narsa deyilmaydi. Davlat tiliga doir qonun ijrosi zaifligicha qolar ekan, so'nggi yillarda o'zbek tiliga doir muammolar qamrovi ham kengaygan; jamoatchilikda, ayniqsa, ta'lim sohasida o'zbek tiliga nisbatan ishonch yo'qolib borayotgani, rus tilli maktablarga ehtiyoj keskin kuchaygani kuzatilgan. Tilshunos olim Baxtiyor Isabekka ko'ra, davlat maqomini olganiga 30 yil to'lgan o'zbek tili imlodagi ikkilanishdan, arosatdan qutilmas ekan, ta'limdagi, jamiyatdagi o'rnini ham tiklashi qiyin, ayniqsa, o'zbek tili davlat tizimiga ko'chmagan bir sharoitda.

"Bu qarorlar faqat shaklan, ko'rinish uchun, 31 yillikni nishonlash bilan o'zbek

tili keng miqyosda qo'llanib qolmaydi. O'zbek tili hali davlat tili maqomini to'liq egallagani yo'q, tizimning ichiga kirib borgani yo'q. Masalan, televideniye, radio bo'lsin, o'zbek tilida istagancha chala yarim gapirish mumkin, ammo shu narsani rus tilida qilib bo'lmaydi. Shunday bir munosabat mavjud bir paytda biz nimani bayram qilamiz... Konstitutsiya belgilanishi tilning maqomi amaliyotga ko'chganidan darak bermaydi. Mana Toshkentning o'zida o'zbek maktablari yildan yilga kamayib rus tiliga o'tib ketyapti. Imlo masalasida esa hamon ikkilanish, avval ham aytgandim, 40-yillarda lotindan kirill alifbosiga o'tish uchun bir kechaning o'zi kifoya qilgan edi.

Xulosa. Ona tili – millatning ruhi, uning ko'zgidir. Til – davlat timsoli, mulki. Tilni asrash, rivojlantirish – millatning yuksalishi demakdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yilgan. Ya'ni ona tilimiz mustaqil davlatimizning Bayrog'I, Gerbi, Madhiyasi bilan bir qatorda turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzi hisoblanadi. Til-millat qiyofasining bir bo'lagi, ma'naviy boyligidir. Til nafaqat muomala vositasi – balki xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarsi, tarixidir. Turli xalqlarning tillariga hurmat esa o'z navbatida o'zaro tushunishni, muloqotlarga imkon yaratadi.

References:

1. uz.infocom.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti matbuot xizmati
3. uza.uz
4. www.bbc.com
5. <http://idum.uz/uz/archives/10000>
6. <https://yuz.uz/uz/news/ona-tilim-jonu-dilim?ysclid=l3zryx1gw>



7.<https://www.texnoman.uz/post/online-dasturlashni-organish-uchun-eng-zor-saytlar.html?ysclid=l3zrz9cdj7>